INGLIZ VA O‘ZBEK BOLALAR SHE'RIYATIDA INSON VA TABIAT MUNOSABATLARINING QIYOSIY TAHLILI (A. A. MILNE VA QUDDUS MUHAMMADIY IJODI MISOLIDA)

Mahbuba Nusratova Usmonxon qizi
Qarshi davlat universiteti, Tillar fakulteti, 3-bosqich talabasi.
https://doi.org/10.5281/zenodo.24278705

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek bolalar she’riyatida inson va tabiat munosabatlarining badiiy ifodasi ingliz shoiri A. A. Milne va o‘zbek bolalar shoiri Quddus Muhammadiy ijodi misolida qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda ikki shoir she’rlarida tabiat manzaralari, o‘simliklar dunyosi, insonning atrof-muhitga munosabati hamda tabiat go‘zalligini idrok etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, tabiat obrazlarining bolalar dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rni, ekologik ong va tabiatga mehr-muhabbat tuyg‘ularini tarbiyalashdagi badiiy-estetik ahamiyati yoritib berilgan. Ingliz va o‘zbek bolalar she’riyatiga xos mushtarak jihatlar hamda milliy o‘ziga xosliklar qiyosiy tahlil asosida ochib beradi.
Kalit so‘zlar: *bolalar she’riyati, inson va tabiat munosabati, tabiat obrazlari, ekologik tarbiya, A. A. Milne, Quddus Muhammadiy, qiyosiy-tipologik tahlil, tabiat tasviri, bolalar dunyoqarashi, ekologik ong.*

ABSTRACT: This article provides a comparative-typological analysis of the artistic representation of the relationship between humans and nature in English and Uzbek children's poetry, focusing on the works of A. A. Milne and Quddus Muhammadiy. The study examines the depiction of natural landscapes, the plant world, human attitudes towards the environment, and children's perception of natural beauty in the poetry of both authors. Particular attention is given to the role of nature imagery in shaping children's worldviews and developing environmental awareness, appreciation of nature, and a sense of responsibility towards the natural environment. Furthermore, the article explores common literary features and national characteristics of English and Uzbek children's poetry through a comparative analysis of the selected works.
Keywords: *children's poetry, human-nature relationship, nature imagery, environmental education, A. A. Milne, Quddus Muhammadiy, comparative-typological analysis, nature description, children's worldview, environmental awareness.*

АННОТАЦИЯ: В данной статье проводится сравнительно-типологический анализ художественного изображения взаимоотношений человека и природы в английской и узбекской детской поэзии на примере творчества А. А. Милна и Куддуса Мухаммади. В исследовании рассматриваются особенности изображения природных пейзажей, растительного мира, отношения человека к окружающей среде, а также восприятия детьми красоты природы. Особое внимание уделяется роли природных образов в формировании мировоззрения детей, развитии экологического сознания, любви к природе и чувства ответственности за окружающую среду. На основе сравнительного анализа выявляются общие черты и национальные особенности английской и узбекской детской поэзии.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

Ключевые слова: *детская поэзия, взаимоотношения человека и природы, образы природы, экологическое воспитание, А. А. Милн, Куддус Мухаммади, сравнительно-типологический анализ, изображение природы, мировоззрение детей, экологическое сознание.*

Adabiyot inson va tabiat o‘rtasidagi uzviy munosabatlarni badiiy aks ettiruvchi muhim ma’naviy vositalardan biridir. Ayniqsa, bolalar adabiyotida tabiat tasviri alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bola ilk bor atrof-muhitni kuzatish, tabiat hodisalarini anglash, o‘simliklar va hayvonot dunyosiga qiziqish orqali borliq haqidagi dastlabki tasavvurlarini shakllantiradi. Shu jihatdan bolalar she’riyatida tabiat obrazlarining ifodalanishi nafaqat estetik zavq uyg‘otish, balki yosh avlodda tabiatga mehr, ekologik ong va atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni tarbiyalash vazifasini ham bajaradi.

Bugungi kunda ekologik muammolarning global miqyosda dolzarb ahamiyat kasb etishi, tabiiy resurslarni asrash va atrof-muhit muhofazasiga e’tiborning ortishi bolalar adabiyotida inson va tabiat munosabatlarini chuqur o‘rganish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, yosh avlodda ekologik madaniyatni shakllantirishda badiiy adabiyotning imkoniyatlaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Bolalar she’riyati esa tabiat hodisalarini sodda, obrazli va ta’sirchan ifodalashi bilan ushbu jarayonda o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Ingliz va o‘zbek bolalar she’riyati jahon bolalar adabiyotining o‘ziga xos badiiy qatlamlari sifatida tabiat mavzusini turli milliy-madaniy qarashlar asosida yoritadi. Ingliz bolalar adabiyotining taniqli vakillaridan biri Alan Aleksandr Milne o‘z she’rlarida tabiat manzaralari, bolalarning atrof-muhit bilan munosabati va borliqni bolalarcha idrok etish xususiyatlarini o‘ziga xos poetik uslubda ifodalagan. O‘zbek bolalar she’riyatining yirik namoyandasi Quddus Muhammadiy ijodida esa tabiat, o‘simliklar va hayvonot dunyosi, tabiat hodisalari hamda ularga inson munosabati muhim mavzulardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur ikki ijodkor asarlarini qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganish ingliz va o‘zbek bolalar she’riyatida inson va tabiat munosabatlarining mushtarak hamda farqli jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Xususan, tabiat obrazlarining yaratilishi, badiiy tasvir vositalarining qo‘llanilishi, bolalar dunyoqarashiga ta’siri, ekologik tarbiya g‘oyalarining ifodalanishi va milliy xususiyatlarning poetik talqini tadqiqotning asosiy yo‘nalishlarini tashkil etadi.

Shu nuqtayi nazardan, A. A. Milne va Quddus Muhammadiy ijodini o‘zaro qiyoslash orqali ikki xalq bolalar she’riyatida tabiatga munosabatning badiiy-estetik xususiyatlarini ochib berish, tabiat obrazlarining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash hamda bolalar adabiyotining ekologik madaniyatni shakllantirishdagi ahamiyatini yoritish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Bolalar she'riyatida tabiat insonning ruhiy olami, dunyoqarashi va estetik tafakkurini shakllantiruvchi muhim badiiy manbalardan biri hisoblanadi. Tabiat hodisalari, o‘simliklar, qushlar, hayvonlar va fasllar tasviri orqali bolalarda atrof-muhitga nisbatan qiziqish, mehr-muhabbat hamda kuzatuvchanlik xususiyatlari rivojlanadi. Shu bois ingliz va o‘zbek bolalar she'riyatida tabiat mavzusining yoritilishi nafaqat tasviriy, balki tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyatga ham ega.

Ingliz bolalar she'riyatining taniqli vakili Alan Aleksandr Milne ijodida tabiat inson va borliq o‘rtasidagi tabiiy munosabatlarni ochib beruvchi poetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shoirning 1924-yilda nashr etilgan *When We Were Very Young* to‘plamidagi *Spring Morning* she'ri bunga misol bo‘la oladi.

Mazkur she'rda bahor tongi, bulutlar, yashil maysalar, daraxtlar, qushlar va tabiat manzaralari bolaning o‘ziga xos nigohi orqali tasvirlanadi. Lirik qahramonning qayerga borayotganini aniq bilmasligi, tabiat qo‘ynida erkin harakatlanishi va atrofdagi hodisalarni kuzatishi bolalarga xos qiziquvchanlik

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

hamda erkin tafakkurni namoyon etadi. Ayniqsa, bulutlar va qushlarning harakati orqali tabiatga jonli va harakatchan obraz sifatida munosabat bildiriladi[1].

Milne she'riyatida tabiat oddiy manzara vazifasini bajarib qolmay, balki bolaning xayolot olamini boyituvchi, uning atrof-muhit bilan hissiy aloqasini mustahkamlovchi badiiy vositaga aylanadi. Shoir tabiat hodisalarini bolaning tasavvuri bilan uyg‘unlashtirib, o‘quvchini borliqni kuzatishga, uning go‘zalligini his qilishga undaydi.

O‘zbek bolalar she'riyatining yirik namoyandasi Quddus Muhammadiy ijodida ham tabiat mavzusi muhim o‘rin egallaydi. Shoirning «Bargjon» she'ri tabiat va inson munosabatlarini o‘rganishda e'tiborga molik asarlardan biridir. Mazkur she'rning yaratilishiga shoirning pedagogik faoliyati va tabiatshunoslik mavzulariga bo‘lgan qiziqishi ham asos bo‘lgan. Adabiyotshunoslikka oid o‘quv manbalarida shoirning «Momaqaymoq», «Qoqi o‘t», «Bog‘imizda bir nok bor», «Tut» kabi she'rlari ham tabiat mavzusiga bag‘ishlangan asarlar sifatida qayd etiladi.

Quddus Muhammadiy she'riyatida tabiat obrazlari bolalarga atrofdagi olamni tanitish, o‘simliklar va boshqa tabiiy hodisalarning xususiyatlarini anglatish bilan birga, ularda tabiatga nisbatan mehr va e'tibor tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Shoir tabiat hodisalarini bolalar tushunadigan sodda, ravon va obrazli ifodalar orqali yoritishga intiladi[2]. Bu esa uning she'rlarida ilmiy-ma'rifiy mazmun bilan badiiy-estetik ifodaning o‘zaro uyg‘unlashuvini ta'minlaydi.

A. A. Milne va Quddus Muhammadiy ijodini qiyosiy o‘rganish jarayonida har ikki shoirning tabiatni bolalar nigohi orqali tasvirlashga intilishi umumiy xususiyat sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq ushbu yondashuvning badiiy ifodalanishida muayyan farqlar ham mavjud.

Milnening *Spring Morning* she'rida tabiat, avvalo, bolaning erkin tasavvuri va hissiy kechinmalari bilan bog‘liq holda gavdalanadi. Shoir tabiat manzaralarini bolaning kuzatuvlari, savollari va xayoliy tasavvurlari orqali jonlantiradi. Bunda tabiat bilan inson o‘rtasidagi munosabat ko‘proq hissiy-estetik xarakter kasb etadi.

Quddus Muhammadiyning «Bargjon» she'rida esa tabiatni anglash va uning tarkibiy qismlarini o‘rganish jihati alohida ahamiyatga ega. Shoir tabiat obrazlari orqali bolalarning bilimlarini boyitish, ularni kuzatishga va atrofdagi borliqning xususiyatlarini anglashga yo‘naltiradi.

Shunday qilib, Milne ijodida tabiat bolaning xayoliy va hissiy olamini kengaytiruvchi vosita sifatida, Quddus Muhammadiy ijodida esa estetik zavq bilan bir qatorda ma'rifiy va tarbiyaviy mazmunni ifodalovchi badiiy hodisa sifatida ko‘proq namoyon bo‘ladi.

Bolalar she'riyatida tabiat obrazlarining muhim vazifalaridan biri yosh avlodda atrof-muhitga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishdir. Tabiat tasviri orqali bolalar o‘simliklar va hayvonot dunyosiga qiziqish bildiradi, tabiat hodisalarini kuzatadi hamda ularning inson hayotidagi ahamiyatini anglay boshlaydi.

A. A. Milne va Quddus Muhammadiy ijodida tabiatning badiiy ifodalanishi bolalarning estetik dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Har ikki shoir tabiat manzaralarini bolalar idrokiga mos shaklda tasvirlash orqali ularning borliqqa bo‘lgan munosabatini boyitadi.

Demak, ingliz va o‘zbek bolalar she'riyatida tabiat mavzusi insonning ma'naviy olami bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi. Bu esa bolalar adabiyotining nafaqat badiiy-estetik, balki ma'rifiy-tarbiyaviy imkoniyatlarini ham namoyon qiladi.

---

[1] Q.Muhammadiy Tanlangan asarlar – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot. - 43b.

[2] Milne, A. A. *When We Were Very Young*. London: Methuen & Co., 1924. pg.129

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

Bolalar she'riyatida tabiat obrazlari badiiy mazmunni shakllantirish, bolaning borliq haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va uning estetik dunyoqarashini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Tabiat obrazlari orqali shoirlar atrof-muhitning rang-barangligini, inson va tabiat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni hamda tabiat go‘zalligining inson hayotidagi ahamiyatini ifodalaydilar.

A. A. Milne ijodida tabiat obrazlari, asosan, bolaning bevosita kuzatuvlari va hissiy kechinmalari bilan uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Uning *Spring Morning* she'rida bahor faslining o‘ziga xos manzaralari, osmon, bulutlar, daraxtlar va qushlar tasviri orqali tabiatning jonlanishi aks ettiriladi. Shoir tabiat hodisalarini bolalarcha idrok etish xususiyatidan foydalanib, oddiy manzaralarga o‘ziga xos badiiy joziba bag‘ishlaydi.

Quddus Muhammadiy ijodida esa tabiat obrazlari ko‘proq ma'rifiy va tarbiyaviy mazmun bilan uyg‘unlashadi. Uning «Bargjon» she'rida barg obrazi orqali o‘simliklar dunyosiga xos xususiyatlarni bolalar ongiga singdirish, ularning tabiat haqidagi bilimlarini kengaytirish imkoniyati yuzaga keladi. Shoir tabiatning alohida unsurlarini badiiy obraz darajasiga ko‘tarish orqali bolalarda kuzatuvchanlik va tabiatga qiziqish uyg‘otadi.

Shu jihatdan, ikki shoir ijodida tabiat obrazlari milliy adabiy an'analar va individual badiiy uslub asosida shakllangan bo‘lsa-da, ularning umumiy maqsadi yosh kitobxonni tabiatga yaqinlashtirish, unda go‘zallikni his etish va borliqqa ongli munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Ingliz va o‘zbek bolalar she'riyatida tabiat tasviri muayyan milliy-madaniy qarashlar bilan ham chambarchas bog‘liq. Har bir xalqning tabiiy muhiti, turmush tarzi va madaniy qadriyatlari tabiat obrazlarining badiiy talqiniga o‘z ta'sirini ko‘rsatadi.

A. A. Milne she'riyatida tabiat manzaralari ingliz bolalarining kundalik hayoti, sayr qilish, bog‘larda vaqt o‘tkazish va atrofdagi borliqni kuzatish kabi holatlar bilan uyg‘unlashadi. Shoir tabiatni bolaning shaxsiy tajribasi va hissiy olami bilan bog‘lab tasvirlaydi.

Quddus Muhammadiy ijodida esa tabiat obrazlari o‘zbek xalqining tabiatga munosabati, dehqonchilik madaniyati, bog‘dorchilik an'analari va kundalik hayot bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, daraxtlar, mevalar, o‘simliklar va tabiat hodisalarining tasviri milliy turmush tarziga xos jihatlarni aks ettiradi.

Bu ikki ijodkor she'riyatini qiyoslash orqali tabiat obrazlarining faqat umumiy estetik hodisa emas, balki milliy madaniyatni ifodalovchi muhim badiiy vosita ekanini ham ko‘rish mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ingliz va o‘zbek bolalar she'riyatida inson va tabiat munosabatlarini qiyosiy o‘rganish A. A. Milne va Quddus Muhammadiy ijodida tabiat mavzusining o‘ziga xos badiiy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, har ikki ijodkor tabiat obrazlari orqali bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, ularda estetik did va tabiatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga intilgan.

A. A. Milnening *Spring Morning* she'rida tabiatning go‘zalligi, bahor manzaralari va bolaning borliqni hissiy idrok etishi muhim o‘rin egallaydi. Shoir tabiat hodisalarini bolalarcha nigoh orqali ifodalab, yosh kitobxonni atrofdagi olamni kuzatishga va uning go‘zalligidan zavqlanishga undaydi. Quddus Muhammadiyning «Bargjon» she'rida esa o‘simliklar dunyosi va tabiatning alohida unsurlarini badiiy ifodalash orqali bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini boyitish hamda ularda kuzatuvchanlikni rivojlantirish xususiyatlari namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, A. A. Milne va Quddus Muhammadiy ijodini qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganish bolalar she'riyatida tabiat mavzusining badiiy-estetik va tarbiyaviy imkoniyatlarini yanada

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

chuqurroq anglashga yordam beradi. Har ikki shoir ijodi tabiatni sevish, uning go‘zalligini qadrlash va atrof-muhitga mas'uliyat bilan munosabatda bo‘lish g‘oyalarini yosh avlod ongiga singdirishda bolalar adabiyotining muhim o‘rnini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Milne, A. A. *When We Were Very Young*. London: Methuen & Co., 1924.
2. Q.Muhammadiy Tabiat alifbesi 1-kitob Yosh gvardiya nashriyoti 1974.
3. Q.Muhammadiy Tabiat alifbesi 3-kitob Yosh gvardiya nashriyoti 1977.
4. Q.Muhammadiy Tabiat alifbesi 3-kitob Yosh gvardiya nashriyoti 1977.
5. Q.Muhammadiy Tanlangan asarlar – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot.
6. Mamasoli Jumaboyev “Bolalar adabiyoti va folklor" O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti Toshkent.
7. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Quddus Muhammadiy haqidagi maqola.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.